

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

IQTISODIYOT

F.X.Rahimov, A.Muhammadiyev

Soha komponentlarining samarali integratsiyasi – innovatsion rivojlanish garovi 8

Sh.Nishonova

Investitsiya loyihalarini boshqarish jarayonining bosqichlari va investitsiya jozibadorligini baholash mexanizmlari 16

Z.M.Tojiboyev

Yashil moliya va O'zbekistonda barqaror rivojlanish: rivojlanayotgan bozorlerde ESG va yashil obligatsiyalarning roli..... 21

FALSAFA

Sh.T.Tursunkulova

Estetika tarixida go'zallik tushunchasi 25

S.S.Jabborova

Yangi O'zbekistondagi ma'naviy islohotlar ijtimoiy taraqqiyot omili sifatida..... 32

M.O'rinov

Yangi O'zbekiston tasviriy san'atida avlodlar almashinuvi fenomeni va madaniy transformatsiyalar dialektikasi 35

D.N.Tag'oyeva

Oila, nikoh masalalarining genezisi va jadidlar ma'naviy merosida mazkur masalalarning aks etishi..... 39

A.A.Mirzayev

Ibn al-Arabiyning komil inson haqidagi qarashlari..... 49

M.R.Tuxtasinov

Demokratik jamiyatda siyosiy tafakkurni rivojlantirish muammolari..... 54

G.M.Ruzmatova

Ibn Sino va Erix Fromm: ijtimoiy faollikka oid falsafiy g'oyalarining qiyosiy-tahlili..... 58

J.B.Anarbayev

Yangi O'zbekiston sharoitida inson manfaatlarini ta'minlashda institutsional hamkorlikning roli..... 62

N.A.Umirzakova

Tibbiy ta'limga bioetikaviy imperativlarni joriy etish - zamonaviy tibbiyotni optimallashtirishning usuli sifatida 66

M.R.Sodiqova

Inson qadrini ta'minlashda demokratik qadriyatlarining o'rni 70

I.T.Boltaboyev

Ijtimoiy adolatning falsafiy talqini: tarixiy va zamonaviy yondashuvlar 74

S.R.Bo'ldiyeva

Buxoro hunarmandlarining e'tiqodi va ularning hayotdagi falsafiy qarashlari 79

M.X.Baratova

Kambag'allik muammosining ijtimoiy-falsafiy talqini va uni o'rganishning metodologik asoslari 84

B.Tadjixodjayev

Davlat boshqaruvida xarizmatik shaxslar faoliyatining sotsiologik tahlili 89

A.B.G'ulomov

Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning ma'naviy-ma'rifiy tamoyillari va strategik asoslari 93

M.R.Sodiqova

Yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirishda ijtimoiy-falsafiy omillar 97

D.V.Vohidova

Xojagon tariqati va ma'rifatli jamiyatning ruhiy-ma'naviy asoslari 101

A.B.G'ulomov

Yangi O'zbekiston va fuqorolik jamiyati qurishda Farg'ona jadidchilik maktab namoyondalari ijtimoiy-falsafiy qarashlarining ahamiyati 105



UO'K: 321.01:351.74(575.1)

**YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA INSON MANFAATLARINI TA'MINLASHDA
INSTITUTSIONAL HAMKORLIKNING ROLI****РОЛЬ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В ОБЕСПЕЧЕНИИ
ИНТЕРЕСОВ ЧЕЛОВЕКА В УСЛОВИЯХ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА.****THE ROLE OF INSTITUTIONAL COOPERATION IN ENSURING HUMAN INTERESTS IN
THE CONTEXT OF NEW UZBEKISTAN.****Anarbayev Jaxongir Batir o'g'li** 

Jizzax davlat pedagogika universiteti, "Ijtimoiy fanlar" kafedrası doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida inson manfaatlarini ta'minlash jarayonida institutsional hamkorlikning o'rnı va ahamiyati tahlil etilgan. Davlat boshqaruvi, fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat tashkilotlar hamda xalqaro institutlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, ijtimoiy adolatni qaror toptirish hamda fuqarolarning farovonligini oshirishda muhim omil sifatida yoritilgan.

Аннотация

В статье рассматривается роль и значение институционального сотрудничества в обеспечении интересов человека в условиях Нового Узбекистана. Анализируются взаимодействие государственных органов, институтов гражданского общества, неправительственных организаций и международных структур в защите прав и свобод человека, укреплении социальной справедливости и повышении благосостояния граждан.

Abstract

This article analyzes the role and significance of institutional cooperation in ensuring human interests in the context of New Uzbekistan. It explores the interaction between state institutions, civil society organizations, non-governmental structures, and international institutions in protecting human rights and freedoms, promoting social justice, and improving citizens' welfare.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, inson manfaatlari, institutsional hamkorlik, fuqarolik jamiyati, inson huquqlari, ijtimoiy adolat, barqaror taraqqiyot.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, интересы человека, институциональное сотрудничество, гражданское общество, права человека, социальная справедливость, устойчивое развитие.

Key words: New Uzbekistan, human interests, institutional cooperation, civil society, human rights, social justice, sustainable development.

KIRISH

Bugungi kunda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida inson manfaatlarini ustuvorlik sifatida belgilash davlat siyosatining asosiy yo'nalishiga aylangan. Inson qadri, huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, ularning ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini oshirish borasidagi sa'y-harakatlar turli darajadagi institutlar - davlat organlari, jamoat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi samarali hamkorlikni talab etadi.

Mazkur hamkorlik modeli nafaqat ijtimoiy muammolarni hal etishda, balki demokratik boshqaruv tamoyillarini amaliyotga tatbiq etishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat va jamoat institutlarining o'zaro aloqasi orqali fuqarolarning ehtiyojlarini aniqlash, ularni qondirish mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek, ijtimoiy adolat va tenglikni ta'minlash imkoniyati yuzaga keladi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Jamiyatda aholi va partiyalarning siyosiy faolligi, fuqarolik jamiyati institutlarining roli kun sayin ortib bormoqda".

Yangi O'zbekistonda inson manfaatlarini ta'minlashda davlat va jamoat tashkilotlari, ijtimoiy institutlarning o'rnı juda muhimdir. Bu tashkilotlar va institutlar inson huquqlari, farovonligi va ijtimoiy adolatni ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi. Quyida ularning ba'zi asosiy vazifalari va o'rinlari keltirilgan:

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI.

FALSAFA

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Yangi O'zbekiston davrida inson manfaatlarini ta'minlash masalasi davlat siyosatining markazida turib, bu jarayonda davlat boshqaruvi, fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat tashkilotlar va xalqaro hamkorlik muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sh.M.Mirziyoyevning asarlarida "inson qadri uchun" tamoyili asosida institutsional hamkorlikni kuchaytirish zarurligi ta'kidlanadi. Mahalliy va xorijiy olimlar (A.Saidov, O.Xolbekov, J.Habermas, A.Giddens va boshqalar) ishlarida ham inson huquqlari va manfaatlarini himoya qilishda hamkorlikning o'zni alohida yoritilgan.

Tadqiqotda tizimli yondashuv, tarixiy-qiyosiy, falsafiy-analitik va empirik metodlar qo'llanilib, O'zbekistonda inson manfaatlarini ta'minlashda institutsional hamkorlikning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va samaradorligi tahlil qilindi.

Davlat tashkilotlari: Davlat tashkilotlari inson huquqlarini himoya qilish va ta'minlash uchun qonunchilik va huquqiy asoslarni yaratadi. Bu, yangi qonunlar qabul qilish va mavjud qonunchilikni takomillashtirish orqali amalga oshiriladi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 7-moddasi birinchi bandida "Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai", degan norma mustahkamlangan. Bu norma timsolida O'zbekiston Respublikasida jahon miqyosida umume'tirof etilgan xalq hokimiyatchiligi prinsipi, ya'ni xalq suverenitetning tashuvchisi va davlat hokimiyatining yagona manbai ekanligi ko'rsatilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Shunday ekan, oxirgi yillarda mamlakatimizda Yangi O'zbekiston – inson sha'ni va qadr-qimmat, huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlar oliy qadriyat hisoblangan davlat bo'lishi; xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi; "odamlar tashvishi bilan yashash", xalqimizning qonuniy talab-istaklari va xohish-irodasini ro'yobga chiqarish davlat organlari faoliyatini baholashning eng muhim mezoniga aylanishi; barcha muhim qarorlar aholi ishtirokida, fuqarolik jamiyati institutlari bilan maslahatlashuv asosida qabul qilinishi kabi prinsip va g'oyalarni hayotga tatbiq etishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar amaliyotga joriy qilinmoqda. Demokratianing talabi taomilining o'ziga xosligi ham aynan shunda namoyon bo'ladi. Bunda qonun chiqaruvchi va ijro organlaridan inson huquqlarini ta'minlash; demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlament va siyosiy partiyalar, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining ro'lini kuchaytirish; hokimiyat tarmoqlarini tiyib turish va muvozanatni saqlashda parlament ro'lini oshirish; davlat xizmatlari sifati va samaradorligini yaxshilash, davlat organlari faoliyatining hisobdorligi va ochiqqligini kuchaytirish hamda parlament va jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalga tatbiq etish masalalariga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Yangi O'zbekistonda inson sha'ni, huquq va manfaatlarini oliy qadriyat sifatida e'tirof etish asosida davlat boshqaruvi tamomila xalq manfaatlariga yo'naltirilmoqda. Davlat organlarining ochiqqligi, hisobdorligi, fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorligi va parlament nazoratining kuchaytirilishi demokratik islohotlarning amaliy ifodasidir. Bu haqida prezidentimiz "Bugungi O'zbekiston-samarali parlamentarizm instituti faoliyat ko'rsatayotgan mamlakatdir" – deb ta'kidlagan edilar. Bu ta'kid O'zbekistonning siyosiy tizimida parlamentning rolini kuchaytirish, qonunchilik organlarining mustaqilligini ta'minlash va fuqarolar manfaatlarini ifoda etuvchi vakillik institutlarini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar samarasini anglatadi.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy davlat barpo etishda ishtirok etuvchi asosiy davlat tashkilotlari quyidagilardan iborat.

Birinchi. Markaziy hokimiyat organlari: Prezident, Oliy Majlis va hukumat kabi oliy hokimiyat organlari ijtimoiy siyosatni belgilash va amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Prezident davlatning oliy rahbari bo'lib, ijtimoiy siyosatni yuritishda o'zining farmonlari va qarorlari orqali ijtimoiy davlat tamoyilini hayotga tatbiq etadi. Prezidentlik instituti tomonidan ilgari surilgan "Avval inson – keyin jamiyat va davlat" tamoyili Konstitutsiyaviy darajada mustahkamlandi. O'zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining markazida inson va uning manfaatlarini ta'minlash ustuvor vazifa ekanligini inobatga olgan holda, 2023 yilga yurtimizda "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili", deb nom berildi. Aynan o'sha yildan boshlab, Prezidentimiz oldinlari e'tibordan chetda qolib, "yo'q bo'lib ketish" arafasida bo'lgan sohalarini "oyoqqa turg'izish" uchun olti yil davomida yangi vazirlik va idoralarni tashkil qilishga e'tibor qaratildi. Davlatimiz rahbari tomonidan endilikda sohadagi yutuqlarimizni yanada rivojlantirish maqsadida "Qo'l boshqaruvi"dan – aniq natijaga ishlaydigan "Tizimli boshqaruv"ga o'tish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Oliy Majlis O'zbekiston Respublikasining qonun chiqaruvchi organi bo'lib, ijtimoiy davlatda aholining munosib turmush kechirishi uchun zarur qonunlarni ishlab chiqish orqali ijtimoiy siyosatni belgilashda va uni amalga oshirishda faollik ko'rsatadi. Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatning oliy organi bo'lib, ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda va davlatning ijtimoiy majburiyatlarini bajarishda muhim rol o'ynaydi. Har yili Prezidentning Oliy Majlisga murojaatnomasi asosida parlament faoliyati uchun "yo'l xaritasi" belgilanib boriladi. Birgina, 2023-yilda parlament tomonidan 200 dan ortiq qonun loyihasi ishlab chiqildi va qabul qilindi. Vazirlar, agentlik rahbarlari va hokimlar Senat va Qonunchilik palatasida hisobot berish amaliyoti joriy etildi. "Parlament eshituvlari" va "so'rovlar" orqali davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati kuchaytirildi.

Ikkinchidan. Mahalliy hokimiyat organlari: Viloyat, shahar va tuman hokimliklari ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda va mahalliy muammolarni hal etishda faol ishtirok etadi. Ushbu organlar aholiga zarur xizmatlarni taqdim etadi va jamiyatning umumiy farovonligini ta'minlashga yordam beradi. Bu borada ham yurtimizda talay ishlar salmog'i ko'rinib qolgan. 2023-yil 15-oktabrdan boshlab 28 ta tuman va shaharda "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari tashkil etildi. Bu markazlar orqali 1 351 ta mahallaga 698 nafar ijtimoiy xodim birlashtirildi. Ular og'ir ahvolga tushgan yoki xavf ostidagi fuqarolarga individual ijtimoiy yordam rejalari asosida xizmat ko'rsatmoqda. Yurtimizda mahalla darajasida manzilli yordam ham ijtimoiy davlat tamoyilining amalda nomoyon bo'layotgani ko'rsatadi. Ijtimoiy xodimlar mahalla darajasida nogironligi bo'lgan shaxslar, yolg'iz keksalar, kam ta'minlangan oilalar bilan bevosita ishlab kelmoqda. Ularga zarur hollarda uy-joy fondiga ega muassasalarga vaqtincha ro'yxatdan o'tkazish huquqi berilgan. Hokimliklar tomonidan "mahalla etakchilari" va "hokim yordamchilari" orqali mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirish, kasb-hunar o'rgatish va ish bilan ta'minlash ishlari olib borilmoqda. Birgina, 2023-yilda 12 mingdan ortiq fuqaro ishga joylashtirishda amaliy yordam olgan. Mahalliy muammolarni echishda "Fuqarolar budjeti" mexanizmi orqali aholining takliflari asosida mahalliy infratuzilma, ta'lim, sog'liqni saqlash va transport sohalarida byudjet mablag'lari yo'naltirilmoqda. 2024-yilda 1,2 milliondan ortiq fuqaro mahalliy muammolar bo'yicha taklif bergan.

Davlat tashkilotlari ham o'zidan quydagilarga bo'linib ketadi: Ijtimoiy himoya tashkilotlari, sog'liqni saqlash tizimi, ta'lim tizimi, madaniyat va sport tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, huquq-tartibot organlari.

Yangi O'zbekistonda inson manfaatlarini ta'minlashda ijtimoiy institutlarning o'ring ahamiyatini o'rganamiz.

Jamoat tashkilotlari bu - nodavlat, notijorat asosda faoliyat yurituvchi tuzilmalar bo'lib, fuqarolarning ijtimoiy, madaniy, huquqiy va iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Ular jamiyatda fuqarolik faolligini oshirish, ijtimoiy muammolarni hal qilishda davlat bilan hamkorlik qilish va demokratik tamoyillarni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

Birinchidan, fuqarolik jamiyati institutlari: Yangi O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etishi uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish borasidagi etakchi tashkilot hisoblanadi. Yangi O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari muhim rol o'ynaydi va jamiyatda quyidagi vazifalarni bajaradi:

Ikkinchidan, demokratiyani mustahkamlash: Fuqarolik jamiyati institutlari davlat va jamiyat o'rtasida ko'prik vazifasini bajaradi, fuqarolarning davlat boshqaruvida faol ishtirok etishini ta'minlaydi.

Uchinchidan, huquq va erkinliklarni himoya qilish: Fuqarolik jamiyati institutlari fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. Ular inson huquqlarini himoya qilish, adolatli sud tizimini ta'minlash va korrupsiyaga qarshi kurashda faol ishtirok etadi.

To'rtinchidan, ijtimoiy muammolarni hal qilish: Fuqarolik jamiyati institutlari ijtimoiy muammolarni aniqlash va ularni hal qilishda yordam beradi. Ular nogironlar, xotin-qizlar, bolalar va boshqa ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini himoya qilishda faol ishtirok etadi.

Beshinchidan, ijtimoiy sheriklik: Fuqarolik jamiyati institutlari davlat va jamiyat o'rtasida ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish orqali davlat organlari bilan hamkorlikda ijtimoiy loyihalarni amalga oshiradi va jamiyatning turli qatlamlari o'rtasida muloqotni ta'minlaydi.

Oltinchidan, jamoatchilik nazorati: Fuqarolik jamiyati institutlari davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi. Bu esa davlat boshqaruvida shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlashga yordam beradi.

FALSAFA

Shuni alohida ta'kidlash joziki, so'nggi yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish uchun keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. 2017-2024-yillarda fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash va samaradorligini oshirishga qaratilgan 64 ta normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi. Bu borada yurtboshimiz, jumladan: "Fuqarolik jamiyati institutlarining erkin faoliyat yuritishi, davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etishi uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish e'tiborimiz markazida bo'ladi" deb alohida ta'kidlab o'tganlar. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida fuqarolik jamiyati institutlariga bag'ishlangan alohida bob kiritildi. Bu bobda fuqarolik jamiyati institutlari, jumladan jamoat birlashmalari, nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etishi mustahkamlandi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekistonda inson manfaatlarini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan bo'lib, bu jarayonda davlat tashkilotlari va jamoat tuzilmalar o'zni alohida ahamiyat kasb etadi. Davlat tashkilotlari huquqiy asoslarni yaratish, ijtimoiy himoya, sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat, axborot va huquq-tartibot sohalarida fuqarolarga xizmat ko'rsatish orqali ijtimoiy adolat va farovonlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Jamoat tashkilotlari esa fuqarolik faolligini oshirish, jamiyat va davlat o'rtasida muloqotni mustahkamlash, ijtimoiy muammolarni hal etishda hamkorlik qilish orqali demokratik tamoyillarni chuqurlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy institutlar esa jamiyatda barqarorlik, tenglik va inklyuzivlikni ta'minlash, fuqarolarning ehtiyojlariga mos xizmatlar ko'rsatish orqali ijtimoiy davlat tamoyillarining amaliy tayanchiga aylanmoqda. Ushbu tizimlarning uyg'un faoliyati Yangi O'zbekiston g'oyasining hayotga tatbiq etilishida hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi. O'zbekiston Toshkent 2023 yil.
2. SH.M.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2022. B. 43.
3. Odilqoriyev X. Konstitutsiya va ijtimoiy davlatchilik. –Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2022. –B.74-76.
4. www.parliament.gov.uz.
5. www.onlinelibrary.wiley.com.